

TILSHUNOSLIKNING BADIY ADABIYOT BILAN ALOQASI

Orifjonova Sarvinoz

NamDPI o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi UZB-AU-25 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning jamiyat hayotidagi o'rnini, uning kommunikativlik, emotsional-ekspressivlik kabi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: til va nutq, konnotativ ma'no, leksema, emotsionallik, kommunikativ vazifa va boshqalar.

Ma'lumki, til jamiyatda kommunikativ vazifa bajaradi. Kommunikatsiya bu axborot-almashtiruv jarayoni hisoblanadi. Odamzodga bebaho ne'mat atalmish ong, anglah xususiyati in'om qilingan. Inson aqliy tafakkur jarayonidagi barcha fikrlarni ifoda qilishi yoki qilmasligi mumkin. Koinotda qanchadan qancha samoviy jismlar: sayyoralar, kometalalar, asteroidlar, yulduzlar va hokazolar bo'lgani bilan kunni paydo qilish, yashil dunyoni rivojlantirish faqatgina quyosh sistemasiga bog'liq. Nutqiy jarayonga nutqiy vaziyatga aloqador so'zlarni tanlash va axborot uzatish ham ayni so'zlovchiga bog'liqdir. Til aloqa vositasi sifatida faqatgina oddiy belgilarga ega emas, balki u tinglovchi ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Aynan mana shu nuqtada tilshunoslik bilan adabiyot orasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini sezishimiz mumkin. Mahoratli yozuvchi badiiy asar tili orqali kitobxonga hissiy ta'sir qilish uchun nutqiy jarayonda emotsional va ekspressiv omillardan, so'zlarning konnotativ ma'nolaridan foydalanadi.

Oddiy kundalik so'zlashuv jarayonida emotsional-ekspressivlik xususiyatlariga ehtiyoj sezilmaydi. Chunki kundalik hayotda nutqni shakllantirishda insonlarda muxtasarlik, aniqlik, sodda va ravonlik kabi qator tamoyillarga asoslanish odatiy holatga aylanib qolgan. Agar kundalik hayotda ijobiy bo'yoqdor so'zlardan me'yordan ortiq

foydalansak, nutqimizda uslub buzilishi mumkin. Lekin ijodkor badiiy adabiyotda tilning barcha qirralaridan, hamma uslublarga xos nutqiy formulalardan foydalanishi mumkin.

Badiiy nutqni o'rganuvchi soha bu lingvopoetika hisoblanadi. Badiiy tilning lisoniy imkoniyatlarning barchasini qamrab olishi bu uning eng muhim xususiyatidir. Atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning hikoyalari o'zining keskin ta'sirchan tili, real hayotiy voqealarni qamrab olgani bilan adabiyotshunoslikda alohida o'rin egallaydi. Yozuvchining „Nutq“ nomli hikoyasi mavjud. Ushbu hikoyadan olingan quyidagi parchaga e'tibor beramiz. Asar qahramoni nutqida rasmiy uslub elementlaridan mohirona qo'llangan:

„...siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan, o'z kuchimiz bilan, o'zaro keng mushohada qilish yo'li bilan bevosita hal qiladigan bo'lib qoldik. O'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik...“

Cho'lponning „Go'zal“ she'rida *suymoq* leksemasining bir misrada takroran qo'llanilishi orqali lirik qahramonning hissiyotlarga to'la ruhiy holati namoyon bo'lgan:

Men yo'qsil na bo'lib uni suyibmen,
 Uningchun yonibmen, yonib-kuyibmen,
 Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
 Men suyib ...men suyib, kimni suyibmen?
 Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
 Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, mubolag'a, o'xshatish va boshqa badiiy unsurlardan unumli foydalanish orqali ham badiiy tilning ta'sir kuchi, tasvir jozibasi ortadi. Masalan, Abdulla Oripovning „Birinch muhabbatim“ she'rida dunyoni *tuynuksiz qasr* ga yoki „Bahor“ nomli she'rida samo yoritkichlari bo'lmish yulduzlarni *uvada kamzuldagi billur tugmaga* qiyoslashi orqali ohoriy o'xshatishlarni yuzaga keltirgan. Ushbu lingvopoetik holatlarning zamirida oddiylik, jo'nlikdan qochish,

badiiy nutqni boy rang-barang poetik unsurlarga boyitish orqali ta'sirchanlik, kitobxonning diqqatini jalb qilish maqsadi yotadi.

„Til uslub uchun shaxmat taxtasidagi shohdir”,- deydi Fedin . Badiiy tilni qay yo'sinda shakllantirish, kitobxonning psixologiyasi, dunyoqarashiga so'z orqali qay darajada ta'sir qila olish yozuvchi, shoirlarning kasbiy mahoratlarini belgilab beruvchi mezon desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati"5 jild.
2. Hozirgi o'zbek tili" R.Sayfullayeva.
3. Tilshunoslikka kirish" Sh.Rahmatullayev.